# XIII. DEMOGRAFIK HOLAT VA BANDLIK

## Doimiy aholi soni

Qashqadaryo viloyatining doimiy aholisi soni 2026- yil 1- aprel holatiga 3 731,8 ming kishini tashkil etib, 2026- yil boshidan 14,8 ming kishiga ya’ni 0,4 % ga o‘sgan. Jumladan, shahar aholisi soni 1 588,6 ming kishini (jami aholi sonidagi ulushi 42,6 %), qishloq aholisi soni 2 143,2 ming kishini (57,4 %) tashkil etdi.

**E’tibor bering:**
**2026- yil yanvar-mart oylarida**

-Aholi soni **14,8 ming kishiga** ko‘paydi.

-Tirik tug‘ilganlar soni **21,3 ming nafarni** tashkil etdi.

-Vafot etganlar soni **4,0 ming nafarni** tashkil etdi.

-Nikohlar soni **5,0 ming nafarni** tashkil etdi.

-Ajrimlar soni **0,9 ming nafarni** tashkil etdi

**2026- yilning yanvar-mart oylarida**

Yil boshida doimiy aholi soni **3716949 kishi** (2026- yil 1- yanvar holatiga)

**21,3** *ming bola*
**Tug‘ilganlar soni**

**4,0** *ming kishi*
**O‘lganlar soni**

**4,1** *ming kishi*
**Ko‘chib kelganlar soni**

**6,6** *ming kishi*
**Ko‘chib ketganlar soni**

Doimiy aholi soni
**3 731 773 kishi**
(2026- yilning 1- aprel holatiga)

## Qashqadaryo viloyati bo‘yicha doimiy aholi soni[1)]

*(2026- yilning 1- aprel holatiga, ming kishi)*

| | Jami aholi | shu jumladan: | |
|---|---|---|---|
| | | shahar aholisi | qishloq aholisi |
| **Qashqadaryo viloyati** | **3 731,8** | **1 588,6** | **2 143,2** |
| *shaharlar:* | | | |
| Qarshi sh. | 307,2 | 307,2 | - |
| Shahrisabz sh. | 153,2 | 153,2 | - |
| *tumanlar:* | | | |
| G‘uzor | 233,1 | 54,7 | 178,4 |
| Dehqonobod | 166,9 | 31,7 | 135,2 |
| Qamashi | 308,3 | 72,8 | 235,5 |
| Qarshi | 287,9 | 103,9 | 184,0 |
| Koson | 328,3 | 171,9 | 156,4 |
| Kitob | 294,3 | 108,5 | 185,8 |
| Mirishkor | 135,5 | 50,8 | 84,7 |
| Muborak | 97,4 | 77,2 | 20,2 |
| Nishon | 175,3 | 103,6 | 71,7 |
| Kasbi | 223,1 | 86,1 | 137,0 |
| Ko‘kdala | 201,2 | 34,2 | 167,0 |
| Chiroqchi | 282,0 | 79,7 | 202,3 |
| Shahrisabz | 243,3 | 57,9 | 185,4 |
| Yakkabog‘ | 294,8 | 95,2 | 199,6 |

[1)] *dastlabki ma'lumot*

## Qashqadaryo viloyati bo‘yicha doimiy aholi soni

*(1- aprel holatiga ming kishi)*

| | *2025- y.* | *2026- y.* | *O‘tgan yilga nisbatan o‘sish sur’ati % da* |
|---|---|---|---|
| **Qashqadaryo viloyati** | **3 656,0** | **3 731,8** | **102,1** |
| *shaharlar:* | | | |
| Qarshi sh. | 302,1 | 307,2 | 101,7 |
| Shahrisabz sh. | 150,7 | 153,2 | 101,7 |
| *tumanlar:* | | | |
| G’uzor | 228,0 | 233,1 | 102,2 |
| Dehqonobod | 163,5 | 166,9 | 102,1 |
| Qamashi | 301,3 | 308,3 | 102,3 |
| Qarshi | 281,2 | 287,9 | 102,4 |
| Koson | 321,0 | 328,3 | 102,3 |
| Kitob | 288,8 | 294,3 | 101,9 |
| Mirishkor | 132,9 | 135,5 | 102,0 |
| Muborak | 95,7 | 97,4 | 101,8 |
| Nishon | 171,5 | 175,3 | 102,2 |
| Kasbi | 218,7 | 223,1 | 102,0 |
| Ko‘kdala | 195,6 | 201,2 | 102,9 |
| Chiroqchi | 275,8 | 282,0 | 102,2 |
| Shahrisabz | 239,8 | 243,3 | 101,5 |
| Yakkabog‘ | 289,4 | 294,8 | 101,9 |

## Yanvar-mart oylarida aholining tabiiy harakati

| | *kishi* | | | *har 1000 kishiga nisbatan promille* | |
|---|---|---|---|---|---|
| | *2025- y.* | *2026- y.*[1)] | *o'sish, kamayish* | *2025- y.* | *2026- y.*[2)] |
| Tug'ilganlar | 22 158 | 21 292 | -866 | 24,6 | 23,2 |
| O'lganlar | 3 651 | 4 007 | 356 | 4,1 | 4,4 |
| Tabiiy o'sish | 18 507 | 17 285 | -1 222 | 20,5 | 18,8 |
| Nikohlar | 4 997 | 4 984 | -13 | 5,6 | 5,4 |
| Ajralishlar | 824 | 854 | 30 | 0,9 | 0,9 |

**Tug'ilish darajasi.** 2026- yilning yanvar-mart oylarida tug'ilganlar soni 21 292 kishini tashkil qildi va 2025- yilning shu davriga (22 158 kishi) nisbatan 866 kishiga kamaydi. Tug'ilish koeffitsienti mos ravishda 23,2 promilleni tashkil qildi va 2025- yilning shu davriga (24,6 promille) nisbatan 1,4 promillega kamaydi.

**Aholining tabiiy harakati koeffitsientlari**
*(yanvar-mart oylarida) (1000 aholi soniga nisbatan promille)*




Tug'ilish darajasining kamayishi viloyatning deyarli barcha hududlarida qayd etildi. Bu ko'rsatkichning yuqori darajasi Qarshi tumanida 20,9 dan 17,9 promillega va Kasbi tumanida 20,0 dan 17,4 promillega kamayishi kuzatilgan.

[1)] *dastlabki ma'lumot*
[2)] *dastlabki ma'lumot*

Tug‘ilish. 2026- yilning yanvar-mart oylarida 21,3 mingta bola tug‘ilganligi qayd etilgan bo‘lib (bu yerda va keyinchalik tug‘ilganlarga faqat tirik tug‘ilganlar inobatga olingan) mos ravishda 1 000 aholiga nisbatan tug‘ilish koeffitsienti 23,2 promilleni tashkil etdi hamda 2025- yilning mos davriga nisbatan 1,4 promillega kamayganligi (2025- yilning yanvar-mart oylarida 24,6 promille bo‘lgan) kuzatildi.

**Ma'lumot uchun**

Tirik tug'ilganlik mezonlaridan (nafas, yurak urishi, kindik pulsatsiyasi, muskullarning beixtiyoriy qisqarishi) biri mavjud bo'lsa ham bola tirik tug'ilgan hisoblanadi. Bunda onaning homiladorlik muddati **22 hafta** va undan ortiq, bolaning bo'yi **25 sm** va undan ortiq, vazni **500 gramm** va undan ortiq bo'lishi lozim.

**Tumanlar kesimida tug‘ilganlar soni va koeffitsienti**

(2026- yilning yanvar-mart oylarida)




**O‘lim darajasi.** 2026- yilning yanvar-mart oylarida o‘lganlar soni 4 007 kishini tashkil qildi va 2025- yilning shu davriga (3 651 kishi) nisbatan 356 kishiga yoki 109,7 foizga ko‘paydi. Mos ravishda o‘lim koeffitsienti 4,4 promilleni tashkil qildi (2025- yilning yanvar-mart oylarida 4,1 promille).

## O‘lim soni va koeffitsientlari




O‘lim ko‘rsatkichlarining yuqori darajasi Koson tumanda (3,5 dan 4,3 promillega), Shahrisabz shahrida (4,3 dan 5,1 promillega) ko‘payishi kuzatilgan.

**Nikoh.** 2026- yilning yanvar-mart oylarida FHDYO organlari tomonidan 5,0 ming nikoh qayd etildi, mos ravishda 1 000 aholiga nisbatan nikoh tuzish koeffitsienti 5,4 promilleni tashkil etdi.



## Tumanlar kesimida tuzilgan nikohlar soni va koeffitsienti

*(2026- yilning yanvar-mart oylari holatiga 1 000 aholiga nisbatan promille)*




**Nikohdan ajralishlar.** 2026- yilning yanvar-mart oylarida FHDYO organlari tomonidan 0,9 mingta nikohdan ajralishlar qayd etilgan bo‘lib, mos ravishda 1 000 aholiga nisbatan nikohdan ajralish koeffitsienti 0,9 promilleni tashkil etdi.

## Tumanlar kesimida nikohdan ajralishlar soni va koeffitsienti

*(2026- yilning yanvar-mart oylari holatiga)*




**Nikohlar va ajralishlar.** 2026- yilning yanvar-mart oylari FHDYO organlarida 4 984 ta nikohlar va 854 ta ajralishlar ro‘yxatga olingan. Ming aholiga nisbatan 5,4 ta nikoh (2025- yilning tegishli davrida 5,6 ta) va 0,9 ta ajralishlar (2025- yilning tegishli davrida 0,8 ta) to‘g‘ri kelgan.

## Tuzilgan nikohlar va nikohdan ajralishlar soni

*(yanvar-mart oylarida, birlik)*

| | Tuzilgan nikohlar | | Nikohdan ajralishlar | |
|---|---|---|---|---|
| | 2025- y. | 2026- y. | 2025- y. | 2026- y. |
| **Qashqadaryo viloyati** | **4 997** | **4 984** | **824** | **854** |
| *shaharlar:* | | | | |
| Qarshi sh. | 451 | 445 | 112 | 96 |
| Shahrisabz sh. | 177 | 176 | 59 | 53 |
| *tumanlar:* | | | | |
| G'uzor | 276 | 266 | 33 | 35 |
| Dehqonobod | 182 | 168 | 29 | 27 |
| Qamashi | 443 | 379 | 54 | 57 |
| Qarshi | 347 | 340 | 80 | 70 |
| Koson | 438 | 473 | 42 | 40 |
| Kitob | 403 | 400 | 61 | 68 |
| Mirishkor | 169 | 184 | 20 | 24 |
| Muborak | 102 | 125 | 28 | 39 |
| Nishon | 218 | 240 | 45 | 45 |
| Kasbi | 263 | 292 | 32 | 32 |
| Ko‘kdala | 299 | 287 | 26 | 19 |
| Chiroqchi | 396 | 425 | 58 | 79 |
| Shahrisabz | 443 | 390 | 84 | 74 |
| Yakkabog‘ | 390 | 394 | 61 | 96 |

**Migratsiya[1] (Ichki va tashqi).** Dastlabki ma’lumotlarga ko‘ra 2026- yilning yanvar-mart oylarida Viloyat bo‘yicha ko‘chib kelganlar soni 4 137 kishini, shu davr mobaynida ko‘chib ketganlar soni esa 6 598 kishini tashkil qilgan.

## Aholi migratsiyasi (kishi)

| | | 2025- yilning yanvar-mart oylarida | 2026- yilning yanvar-mart oylarida |
|---|---|---|---|
| | Ko‘chib kelganlar | 3 069 | 4 137 |
| | Ko‘chib ketganlar | 4 877 | 6 598 |
| +- | Migratsiya saldosi | -1 808 | -2 461 |

2026- yilning yanvar-mart oylarida migratsiya qoldig‘i minus 2 461 kishiga (2025- yilning shu davrida minus 1 808 kishi) teng bo‘ldi. Eng katta minus qoldiqlar Qarshi shahri (minus 358), Chiroqchi (minus 341) va Yakkabog‘ (minus 312) tumanlarida kuzatilgan.

## Yanvar-mart oylarida

**Soni, *ming kishi***

**Ko‘chib kelganlar**




**Ko‘chib ketganlar**




---

[1] *shahar va tumanlar hamda hududlararo ichki migratsiyani qo‘shgan holda*
[2)] *dastlabki ma’lumot*

## Viloyat markazidagi demografik holat

Qashqadaryo viloyati markazi Qarshi shahrining doimiy aholisi soni 2026- yil 1- aprel holatiga 307,2 ming kishini tashkil etib, yil boshidan 0,9 ming kishiga yoki 0,3 % ga o‘sgan.

### Qarshi shahri aholisi tabiiy harakati

*(1 000 aholiga nisbatan promille)*

| | 2025- yilning yanvar-mart oylarida | 2026- yilning yanvar-mart oylarida |
|---|---|---|
| Tug‘ilish | 22,6 | 20,7 |

2026- yilning yanvar-mart oylarida 1,6 ming bola tug‘ilganligi qayd etilgan bo‘lib, mos ravishda tug‘ilish koeffitsienti 1 000 aholiga nisbatan 20,7 promilleni tashkil etdi (2025- yilning mos davrida 22,6 promille bo‘lgan).

FHDYO organlarida 2026- yilning yanvar-mart oylarida 445 ta nikoh va 96 ta nikohdan ajralishlar qayd etilgan.

Shuningdek, 1 000 aholiga nisbatan nikoh tuzish koeffitsienti 5,9 promilleni tashkil qilib, 2025- yilning mos davriga nisbatan kamaygan. (2025- yilning mos davrida 6,1 promille bo‘lgan).

Nikohdan ajralish koeffitsienti 1 000 aholiga nisbatan 1,3 promilleni tashkil etib, 2025- yilning mos davriga nisbatan kamaygan. 2025- yilning mos davrida 1,5 promille bo‘lgan.

### Qarshi shahrida tuzilgan nikoh va ajrim

*(yanvar-mart holatiga 1 000 aholiga nisbatan promille)*

